



TALABALAR NUTQINING LEKSIK-SEMANTIK MANZARASI: ARGO VA JARGONLARNING FUNKSIONAL –STILISTIK TADQIQI

Jumayev Elmurod Bekpulatovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti v.b, fffd (PhD)

Elmurodjumayev272@gmail.com

Bektosheva Diyora Sherzod qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 1-kurs talabasi

SHerzodxolmatov1219@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada talabalar nutqida keng qo‘llaniladigan argo va jargon birliklarining leksik-semantik hamda funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda jargon va argoning nazariy asoslari yoritilib, ularning o‘zaro farqli jihatlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, talabalar nutqida jargonlarning shakllanish manbalari, xususan semantik ko‘chish va o‘zlashma so‘zlar orqali boyishi ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. Ish davomida talabalar nutqining ijtimoiy, psixologik va lingvistik jihatlari o‘rganilib, jargonlarning kommunikativ vazifalari ochib berilgan. Natijalar asosida talabalar nutqida jargon va argolar muhim ekspressiv vosita sifatida xizmat qilishi, shu bilan birga ularning me‘yordan ortiq qo‘llanishi adabiy til normalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: talabalar nutqi, jargon, leksik-semantik xususiyatlar, funksional xususiyatlar, semantik ko‘chish, o‘zlashma so‘zlar, sotsiolingvistika, nutq madaniyati.

ANNOTATION: This article analyzes the lexical-semantic and functional properties of slang and jargon units widely used in student speech. The study sheds light on the theoretical foundations of slang and argot, and clarifies their differences. Also, the sources of formation of slang in student speech, in particular, its enrichment through semantic transfer and loanwords, are scientifically demonstrated. During the work, the social, psychological and linguistic aspects of student speech were



studied, and the communicative functions of slang were revealed. Based on the results, it was determined that slang and argot serve as an important expressive means in student speech, and at the same time, their excessive use can negatively affect the norms of the literary language.

Keywords: student speech, slang, lexical-semantic properties, functional properties, semantic transfer, loanwords, sociolinguistics, speech culture.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются лексико-семантические и функциональные свойства сленговых и жаргонных единиц, широко используемых в студенческой речи. Исследование проливает свет на теоретические основы сленга и аргота, а также уточняет их различия. Кроме того, научно доказаны источники формирования сленга в студенческой речи, в частности, его обогащение посредством семантического переноса и заимствований. В ходе работы изучены социально-психологические и лингвистические аспекты студенческой речи, выявлены коммуникативные функции сленга. На основе полученных результатов установлено, что сленг и аргот служат важными выразительными средствами в студенческой речи, и в то же время их чрезмерное использование может негативно влиять на нормы литературного языка.

Ключевые слова: студенческая речь, сленг, лексико-семантические свойства, функциональные свойства, семантический перенос, заимствования, социолингвистика, культура речи.

KIRISH: Til-to'xtovsiz harakatdagi tirik mexanizm bo'lib, u jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga eng tez javob beruvchi vositadir. Ayniqsa, yoshlar, xususan, talabalar qatlami tildagi yangilanishlarning asosiy "drayveri" hisoblanadi. Talabalar davri-inson hayotidagi o'ziga xos submadaniyat bo'lib, u davrda shakllanadigan nutq o'zining emotsionalligi, obrazlilik va "yopiqligi" bilan ajralib turadi.

Talabalar nutqini o'rganish nafaqat tilshunoslik (lingvistika), balki sotsiologiya va psixologiya fanlari uchun ham dolzarbdir. Zero, jargonlar orqali biz



yoshlarning dunyoqashi ,qadriyatleri va o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabatini ko‘rishimiz mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda “jargon” va “argo” tushunchalari ko‘p hollarda sinonim sifatida ishlatilsa-da,ularning o‘ziga xos nozik farqlari mavjud:

Jargon (fransuzcha jargon)- ma’lum bir ijtimoiy guruh yoki kasb egalari tomonidan ishlatiladigan,adabiy tildan lug‘at tarkibi va iboralari bilan farq qiladigan nutq turi.Talabalar jargoni asosan o‘quv jarayonini yengillashtirish va o‘zaro “yaqinlik”hissini yaratishga xizmat qiladi. Argo (fransuzcha argot)- ma’lum bir guruhning o‘zaro muloqotini begonalaridan yashirish maqsadida qo ‘llaniladigan “shifrlangan” til.Talabalar orasida argo elementlari ko‘pincha baholar , pul masalalari va darsdan qochish bilan bog‘liq vaziyatlarda uchraydi.

Talabalar nutqi o‘z-o‘zidan shakllanmaydi.Buning uchun bir necha manba xizmat qiladi. Semantik ko‘chish metaforizatsiya deb ham ataladi. Oddiy so‘zga yangi ma’no yuklanadi.Masalan,”yiqilish”(yerga emas ,imtihondan).

O‘zlashma so‘zlar:

Rus tilidan:”obshaga”(obshejitiye),”Stipuxa”(stpendiya), “Zachyotka”.

Ingliz tilidan:”Deadline”(so‘ngi muddat),

“Presentation”(prezentatsiya),”Skill”(mahorat).

Lingvistik nuqtai nazardan,jargonlar adabiy tilning normalarini buzadi.Biroq,ular tilning hoyotiyiligini ta‘minlaydi.Ko‘pgina so‘zlar vaqt o‘tishi bilan jargonlikdan chiqib,umumxalq tiliga o‘tishi mumkin (masalan,”shpargalka”so‘zi hozirda deyarli adabiy termin kabi qabul qilinadi).

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki,talabalar nutqi-bu shunchaki “ko‘cha tili” emas,balki professional adabtatsiya jarayonidir.

Intellektualizatsiya:Filolog talabalar terminlarni hayotiy vaziyatlarga ko‘chirish orqali o‘zlarining bilim darajalarini namoyish etadilar.Masalan,suhbatdoshining gapini “Bu shunchaki tautologiya “deb baholash orqali talaba ham vaqtni tejaydi, ham o‘zining ilmiy saviyasini ko‘rsatadi.



Talabalar nutqidagi jargonlar (masalan, "pere", "qarz", "yiqilish") o'quv jarayonidagi qiyinchiliklarni kulgu va yumor orqali yengishga yordam beradi. Bu tilshunoslikda "lisoniy o'yin" (linguistic game) deb ataladi.

Ijtimoiy fikr: Jargonlar guruh ichidagi muloqotni "begonalar" (o'qituvchilar yoki boshqa soha vakillari) uchun tushunarsiz qiladi. Bu esa guruh ichidagi jipslikni oshiradi. Biroq muhokama jarayonida aniqlandiki, jargonlarning me'yordan ortiq qo'llanilishi talabaning rasmiy-ishchan nutq uslubiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, uning adabiy tildagi so'z boyligini cheklab qo'yishi mumkin.

NATIJA: O'tkazilgan kuzatishlar va filologiya fakulteti talabalari o'rtasida o'tkazilgan sotsiolingvistik so'rovnomalar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Leksik tartibning yangilanishi: talabalar nutqining 15-20% qismini jargon va argolar tashkil etadi. Shundan 45% qismi rus va ingliz tillaridan o'zlashgan so'zlar bo'lsa, 55% qismi o'zbek tiling ichki imkoniyatlari (ma'no ko'chishi) hisobiga yaratilgan.

Determinologizatsiya darajasi: Filologiya yo'nalishi talabalarining 70% dan ortig'i kundalik muloqotda kamida 5 ta ilmiy termini (masalan: arxaizm, paronim, gradatsiya) o'z joyidan boshqa, ko'chma ma'noda ishlatilishi aniqlandi.

Gender xususiyatlari: O'g'il bola talabalar nutqida ko'proq "qo'pol" argo va darsdan qochish, moddiy masalalarga oid jargonlar ustunlik qilsa, qiz bola talabalar nutqida ko'proq kishilarning harakterini tasvirlovchi (evfemik) jargonlar va ta'lim jarayoniga oid slenglar faol qo'llaniladi.

Tadqiqot davomida talabalar nutqida uchraydigan argo va jargon birliklari leksik-semantik hamda funksional-stilistik jihatdan tahlil qilindi. Kuzatishlar natijasida talabalar nutqining lug'aviy qatlamida argo va jargonlar keng tarqalganligi va ular nutqning ekspressivligini oshiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

XULOSA: Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar nutqining leksik-semantik manzarasi o'ziga xos ijtimoiy-lisoniy hodisa bo'lib, unda adabiy til birliklari bir qatorda argo va jargonlar ham faol qatlamni tashkil etadi. Talabalar nutqida



jargonlarning keng tarqalishi ularning yoshga xos psixologik xususiyatlari, guruhviy muloqot ehtiyoji hamda zamonaviy axborot oqimining kuchayishi bilan bevosita bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, talabalar jargonlari asosan norasmiy kommunikatsiya jarayonida ishlatilib, suhbatning tezkorligini oshirish, fikrni emotsional bo'yoqda ifodalash, shaxsiy munosabatni bildirish hamda ijtimoiy guruhga mansublikni ko'rsatish kabi vazifalarni bajaradi. Argo va jargonlar talabalar tilida ekspressivlik va obrazlilik kuchaytiradi, shuningdek nutqning oddiy so'zlashuv uslubini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, talabalar nutqida argo-jargonlarning haddan tashqari ko'payishi adabiy til me'yorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi, rasmiy uslubda ham noo'rin qo'llanishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ayrim jargonlarning qo'pol va etik jihatdan nojo'ya shakllari yoshlarning nutq madaniyatini pasaytirishi ehtimoli mavjud. Umuman olganda, argo va jargonlar talabalar nutqining tabiiy va faol qatlami bo'lib, ular yoshlar nutqining ijtimoiy, madaniy hamda psixologik ehtiyojlarini aks ettiradi. Bu birliklar tilning rivojlanishida, so'z boyligining yangilanishida hamda yangi ifoda vositalarining shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining etimologik lug'ati". -Toshkent: "Universitet", 2003.
2. Mahmudov N. "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarida". -Toshkent: "Akademnashr", 2012
3. Hojiyev A. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati". -Toshkent, 2002.
4. Safarov Sh. "Pragmalingvistika". -Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008.
5. Nurmonov A. "Struktural tilshunoslik asoslari". -Toshkent, 2004.